

**O'ZBEKISTONDA ADVOKATURA INSTITUTIGA DOIR HUQUQIY ASOSLARNI
YANADA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI**

**MATTERS OF FURTHER ENHANCEMENT OF THE LEGAL FOUNDATIONS OF
ADVOCACY IN UZBEKISTAN ПРОБЛЕМЫ ДАЛЬНЕЙШЕГО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ
ЗАКОНОДАТЕЛЬНОЙ БАЗЫ ИНСТИТУТА АДВОКАТУРЫ В РЕСПУБЛИКЕ
УЗБЕКИСТАН**

Saliyev Otabek Ilxom o'g'li

*O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi
mustaqil izlanuvchisi Otabeksaliyev9@gmail.com +998 97 743 12 27*

Annotatsiya: *Inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan har qanday huquqiy davlatda advokatura instituti sud-huquq islohotlarining ajralmas qismi hisoblanadi. O'zbekistonda so'nggi yillarda Prezident Sh.M. Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar natijasida advokatlarining jamiyatdagi mavqei va mustaqilligi kuchaytirildi, ularning faoliyatiga doir qonunchilik bazasi tubdan yangilandi. Biroq, zamonaviy chaqiriqlar, xususan, Ochiq muloqot va Qonun ustuvorligini ta'minlash talablari advokatura faoliyatining huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish zaruratini keltirib chiqarmoqda.*

Kalit so'zlar: *Advokatura, huquqiy institut, advokatlik faoliyati, Qonunchilik tahlili, himoya huquqi, sud-huquq tizimi, advokat maqomi.*

Annotation: *The institution of advocacy (the Bar) is an integral part of judicial and legal reforms in any law-governed state aimed at ensuring human rights and freedoms. In Uzbekistan, as a result of the large-scale reforms carried out in recent years under the leadership of President Sh.M. Mirziyoyev, the status and independence of lawyers in society have been strengthened, and the legislative framework for their activities has been fundamentally updated. However, modern challenges, in particular the requirements for ensuring Open Dialogue and the Rule of Law, necessitate the further improvement of the legal foundations of the advocacy's activities.*

Key words: *advocacy, legal institution, legal practice, Legislation analysis, right to defense, judicial system, status of a lawyer.*

Аннотация: *Институт адвокатуры является неотъемлемой частью судебно-правовых реформ в любом правовом государстве, направленном на обеспечение прав и свобод человека. В Узбекистане в результате широкомасштабных реформ, осуществляемых в последние годы под руководством Президента Ш.М. Мирзиёева, был усилен статус и независимость адвокатов в обществе, а также кардинально обновлена законодательная база их деятельности. Однако современные вызовы, в частности, требования обеспечения Открытого диалога и Верховенства закона, обуславливают необходимость дальнейшего совершенствования правовых основ деятельности адвокатуры.*

Ключевые слова: *адвокатура, правовой институт, адвокатская деятельность, анализ законодательства, право на защиту, судебно-правовая защита, статус адвоката.*

O'zbekistonda advokatura institutining o'rne va funksiyasini chuqurroq tushunish uchun xorijiy mamlakatlarda advokatura institutini tashkil etishning ilg'or tajribasiga murojaat qilishimiz kerak. Xorijiy mamlakatlarda advokatura instituti faoliyatining huquqiy asoslari va amaliyotini tahlil qilish mamlakatimizda advokatura instituti faoliyatining muammoli tomonlari va ularni hal etishning mumkin bo'lgan yo'llarini aniqlash imkonini beradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, G'arbiy Yevropada so'nggi 50 yil ichida advokatlar soni sezilarli darajada oshdi. 1960-yildan beri advokatlar soni uch baravar ko'paydi va hozirgi kunga kelib har 100 000 kishiga 312 advokat to'g'ri kelmoqda. 1970-yilda faqat bir nechta firmalardagina 100 nafardan ortiq advokat bor edi. Hozir mingdan ortiq megafirmalar mavjud. Ko'rsatilgan yuridik xizmatlar soni ham barqaror o'sib bormoqda.

Aksariyat G'arbiy Yevropa davlatlarining qonunchiligi advokatutani advokatlik bilan shug'ullanuvchi shaxslarning professional birlashmasi sifatida baholaydi. Shuningdek, ushbu mamlakatlar qonunlari bo'yicha advokatura instituti tushunchasi advokat deb tan olingan barcha shaxslarni ham, huquqiy asosga va o'z vakolatiga ega bo'lgan advokatura tashkilotlarini ham qamrab oladi.

G'arbiy Yevropa davlatlari advokaturani fuqarolik jamiyati instituti sifatida e'tirof etgan holda, uning institutsional mustaqilligini mustahkamlashga, fuqarolar va ularning birlashmalarining asosiy huquqlarini samarali amalga oshirishga hissa qo'shadilar, bu esa ko'p jihatdan, advokatlik faoliyatini to'g'ri tashkil etishga bog'liq. Advokaturani tashkil etish fuqarolar va ularning birlashmalarining asosiy huquqlaridan kelib chiqadigan ehtiyoj va vazifalarga javob berishi kerak. Advokaturadan, birinchi navbatda, ularga rioya qilish uchun umumiy irodaning namoyon bo'lishi talab qilinadi. Advokatura ularni maqsad va chora sifatida ko'rishi, o'z faoliyatini ana shu tamoyillarga bo'ysundirishi, mustahkamlangan va kafolatlangan huquq va erkinliklardan chetlanishlarni tuzatishi zarur.

"Advokatura to'g'risida"gi qonunda Advokaturaga huquqiy ta'rif berilib fuqarolik jamiyatning alohida huquqiy instituti sifatida e'tirof etilgan. Shuningdek, qonunda advokatlik faoliyatining tashkiliy shakllari, advokatlik faoliyatining turlari, advokatlik maqomini olish tartiblari, malaka komissiyalar, advokat mehnatiga haq to'lash, advokatning intizomiy javobgarligini tartibga soluvchi normalar belgilangan bo'lsa, "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi Qonunda esa, advokatning dahlsizligi, kasbiy faoliyatning kafolati va advokatning dahlsizligi, yuridik yordamni tashil etishning kafolatlari, advokaturaning davlat bilan o'zaro munosabatlarini tartibga soluvchi normalar belgilandi.

G'arbiy Yevropa mamlakatlarida advokatlarning o'zini o'zi boshqarish tizimining tashkil etilishini ko'rib chiqadigan bo'lsak, G'arbiy Yevropada advokatura tomonidan o'zini o'zi boshqarishning quyidagi modellarini foydalanilishini ko'rishimiz mumkin.

Birinchi model klassik bo'lib, unda advokaturaga a'zolik advokatlar palatasiga a'zolik bilan bog'liq. Bunday tuzilma korporativ boshqaruv tamoyillariga asoslanadi, bunda a'zolarining o'zlari huquq va vakolatlarning manbai bo'lib, ularning bir qismini boshqaruv organlariga topshiradilar. Advokatlar o'z tashkilotining ustaviga rioya qilish majburiyatini oladilar, advokatlarning o'z kasbiy tashkilotiga a'zo bo'lishi va a'zolik badallari to'lanishi majburiy holga aylanadi. Advokatlarning professional tashkilotiga a'zo bo'lmagan shaxs advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'lmaydi.

Bu modeldan Germaniya, Fransiya, Italiya, Gretsiya, Ispaniya, Gollandiya, Belgiya kabi davlatlarni foydalaniladi.

Ikkinchi model palatalarning hududiy asosda tuzilganligi va ma'lum bir federal davlat hududida ro'yxatga kiritilgan barcha advokatlarni birlashtirishi bilan tavsiflanadi. Har bir advokatlar palatasining yurisdiksiyasi ushbu palata tashkil etilgan federal davlat hududiga, shuningdek ushbu advokatlar palatasining ro'yxatiga kiritilgan barcha advokatlarga taalluqlidir.

Ushbu modelning tipik vakili Avstriya hisoblanadi. Germaniyada advokaturaning o'z-o'zini boshqarishi ikkala modelning majburiy xususiyatlarini o'z ichiga oladi.

Uchinchi model assotsiatsiyalar, kasaba uyushmalari orqali advokaturaning o'zini o'zi boshqarishini nazarda tutadi: masalan, Shvetsiyada advokatlar uyushmasi, Shveytsariyada advokatlar ittifoqi.

Advokatura institutining fuqaro, jamiyat va davlat hayotidagi alohida ahamiyatiga qaramay, G'arbiy Yevropa davlatlari konstitutsiyalarida advokatura instituti qanday tashkil etilishi kerakligi to'g'risidagi ko'rsatmani kamdan-kam uchratish mumkin. Yevropa mamlakatlarida ushbu hamjamiyat faoliyatini tartibga solish advokatura va advokatlik to'g'risidagi qonun hujjatlari doirasida amalga oshiriladi.

So'nggi besh yillikda advokatura sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar, xususan, "Advokatura to'g'risida"gi Qonunga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar hamda Prezident farmonlari va qarorlari advokatning maqomi va kafolatlarini kuchaytirishga xizmat qildi.

Jumladan:

- Advokatlik sirini himoya qilishning kuchaytirilishi: Bu holat advokatning kasbiy mustaqilligini oshirishda muhim qadam bo'ldi.
- Advokatlik faoliyatini litsenziyalash va malaka imtihonlarini takomillashtirish: Bu orqali advokat kadrlarning sifatini oshirishga e'tibor qaratildi.
- "Pro bono" (bepul) huquqiy yordam ko'rsatish tizimini rag'batlantirish mexanizmlarining kiritilishi.

Shu bilan birga, advokatura institutining samaradorligini xalqaro standartlarga mos ravishda oshirish uchun quyidagi masalalarga e'tibor qaratish lozim:

1. Advokatning mustaqilligi va daxlsizligini ta'minlash

Advokatlarning professional faoliyatiga aralashuv holatlariga yo'l qo'ymaslik bo'yicha aniq huquqiy kafolatlarni mustahkamlash zarur.

Maxsus protsessual maqom: Advokatga nisbatan tergov harakatlarini o'tkazishda alohida tartibni (masalan, prokurorning ruxsati bilan) qonun darajasida qat'iy belgilash lozim.

Advokatlik sirini buzganlik uchun javobgarlik: Advokatlik sirini oshkor qilgan davlat organlari xodimlari uchun javobgarlikni yanada kuchaytirish, buning oldini olishga qaratilgan mexanizmlarni takomillashtirish.

2. Advokatlarning kasbiy tayyorgarligi va malakasini oshirish

Advokatlik kasbining sifatini oshirish tizimini yanada takomillashtirish zarur.

Majburiy uzluksiz malaka oshirish tizimi: Barcha advokatlar uchun har yili belgilangan soat hajmidagi malaka oshirish kurslarini o'tashni majburiy etib belgilash va ushbu kurslar mazmunini amaliyotga yaqinlashtirish.

Yosh advokatlarni qo'llab-quvvatlash: Yosh mutaxassislarni Advokatlar palatasiga a'zo bo'lish va faoliyatini boshlashda amaliy yordam va mentorlik dasturlarini kengaytirish.

3. Advokatlik faoliyatining yangi shakllarini rivojlantirish

Advokatlik firmalarini mustahkamlash: Advokatlik byurolari bilan bir qatorda, yirik ixtisoslashgan advokatlik firmalarining shakllanishini huquqiy jihatdan rag'batlantirish, bu esa xalqaro yuridik xizmatlar ko'rsatish imkoniyatini oshiradi.

Raqamlashtirish: Advokatlik faoliyatida, xususan, Advokatlar palatasining faoliyatida elektron hujjat almashinuvi va "E-advokatura" platformasini to'liq joriy etish.

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagicha xulosaga kelishimiz mumkin.

Advokatura institutiga oid huquqiy asoslarni takomillashtirish masalalari O'zbekistonda chinakam Adolat va Qonun ustuvorligini ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi. Advokatning mustaqilligini, kasbiy faoliyatining yuqori sifatini va ijtimoiy himoyasini ta'minlash orqali fuqarolarning Konstitutsiyada kafolatlangan malakali yuridik yordam olish huquqi to'liq ro'yobga chiqariladi.

Huquqiy islohotlarni davom ettirishda xalqaro tajriba (masalan, Yevropa Kengashining tavsiyalari) va ichki amaliyot talablaridan kelib chiqib, qonunchilik bazasini doimiy ravishda optimallashtirish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining 27.12.1996 yildagi "Advokatura to'g'risida"gi 349-I-sonli qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-y., 2-son, 48-modda; 2001-y., 1-2-son, 23-modda; 2003-y., 5-son, 67-modda; 2004-y., 1-2-son, 18-modda; O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2005-y., 37-38-son, 280-modda; 2008-y., 52-son, 514-modda; 2009-y., 39-son, 423-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 12.10.2018-y., 03/18/497/2044-son; 16.01.2019-y.,

03/19/516/2484-son; 24.05.2019-у., 03/19/542/3177-son, 11.09.2019-у., 03/19/566/3734-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-у., 03/21/683/0375-son, 03.02.2022-у., 03/22/749/0101-son.

2. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1996 йил 27 февралдаги 3-сонли “Қонунга хилоф равишда қуролга эгалик қилиш тўғрисидаги ишлар бўйича суд амалиёти ҳақида”ги қарори // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари миллий базасининг расмий веб-сайти – www.lex.uz

3. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1998 йил 17 апрелдаги 11-сонли “Иқтисодиёт соҳасидаги жиноий ишлар бўйича суд амалиётида юзага келган айрим масалалар тўғрисида”ги қарори // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари миллий базасининг расмий веб-сайти – www.lex.uz.

4. Турдалиев Джамшид (2020). Институциональная независимость адвокатуры в узбекистане: проблемы и пути их решения. Review of law sciences, 3 (Спецвыпуск), 192-207. doi:10.24412/2181-919X-2020-3-192-207.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi "Advokatura instituti samaradorligini tubdan oshirish va advokatlarning mustaqilligini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni (PF-5997-son).

6. Азиза Сабирджановна Гуломова (2022). Адвокатлик фаолиятида юридик ёрдам кўрсатишни тартибга солиш хусусиятлари. Academic research in educational sciences, 3 (4), 348-357. doi: 10.24412/2181-1385-2022-4-348-357.

7. Панченко В. Ю. Подходы к понятию «юридическая помощь» в современном отечественном правоведении / В. Ю. Панченко // Российский юридический журнал. — 2012. — № 1 (82). — С. 18-27.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni (PF-5899-son).